

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI****Komilova Dilnoza Abdulkayevna***Andijon viloyati, Andijon shahri Andijon davlat universiteti**Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

Kalit so'zlar: *kommunikativ kompetensiya, texnologiya, faoliyat, komponent, nutq, til, muloqot.*

“Millik tiklanishdan – milliy yuksalish sari” shiori ostida Uchinchi Renessans ostonasida turgan Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlarini, xususan, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, davlatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan purhikmat fikrlari nafaqat maktab ta'limining balki, maktabgacha ta'lim tizimining oldiga ham qator vazifalarni qo'yganligini anglaymiz. Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy tavsifga ega bo'lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiy tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiyalar alohida mezon sifatida belgilab berilgan. Butun dunyoda, shu bilan birga, respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirish orqali ularni maktab ta'limiga intensiv tayyorlash masalasi dolzarb sanalmoqda. Tarbiyalanuvchilarning nutqiy faoliyati va so'z zaxirasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqishga, zamonaviy texnologiyalar asosida tarbiyalanuvchilarda muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Maktabgacha yoshdagi bolalarni har

tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Til ummonining nozik bilimdoni buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lsa, tilning ofatidir” degan fikrlari, “Xar bir inson shaxsi muloqotda, ularning ruhiy-ma'naviy olami ta'sirida shakllanadi” deb aytgan so'zlari nutqning, muloqotning nafaqat psixologik, filologik, filosofik, fiziologik tadqiqotlarning, balki ta'lim-tarbiya tizimining, xususan, maktabgacha ta'limning ham asosiy o'rganish obyektlaridan biri ekanlinini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshda bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyat hayotiga moslashishi, faol va ma'suliyatli ijtimoiy mavqega ega bo'lishi, o'zini anglay olishi, har qanday odam bilan doimo til topishishi va do'stlashishi uchun zarurdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayondir, ammo juda muhimdir, chunki rivojlanish bilan birga uning hissiy sohasi ham o'zgaradi, bola o'z his-tuyg'ularini anglab va yaxshiroq boshqarishni boshlaydi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning muloqotga kirishishi, so'z boyligi darajasi va ulardan kundalik nutqiy muhitda qo'llash holatlarini o'rganishga oid ilk kuzatuv ishlari orqali, mavzuning dolzarbligini quyidagi holatlar bilan asoslaymiz:

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarda lug'at boyligining boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlarini egallash uchun yetarli emasligi;
- bolalarning o'z fikrini erkin ifodalash, nutqiy muhitga mos so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid didaktik ta'minotning yetarli emasligi;
- ota-onalarning o'z farzandini maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyor bo'lish mezonlari va talablaridan yetarlicha xabardor emasliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalar muloqot davomida o'z fikri, hissiyotlari va taassurotlarini namoyon eta olmayotganliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalar o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotlarni ayta olmasligi, tanish insonlari bilan muloqotga kirisha olmasliklari.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarda kommunikativ kompetensiya yetarli darajada shakllanmayapti. Natijada maktab ta'limiga qadam qo'ygan bolalarning aksariyati turli hayotiy vaziyatlarda kutilmagan muammoga uchramoqdalar. Ma'lumki, bolalar maktabgacha ta'limda olgan bilim va ko'nikmalarini mustaqil fikrlash orqali namoyon etishlari lozim, biroq ular so'z boyligining yetarli emasligi sababli muloqotga qiyinchilik bilan kirishadilar. Shuning uchun ham ularning nutqini rivojlantirish, lug'at zaxirasini boyitish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar tarbiyachi-pedagoglar, tengdoshlari bilan muloqotda bo'ladilar. Aksariyat ota-onalarda "Bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan faqat tarbiyachi-pedagoglar shug'ullanishi kerak" degan xato tushuncha shakllangan. Ular farzandlari bilan oilada muntazam suhbatlashmaydilar, bolalarning savollariga to'liq javob qaytarmaydilar, so'zlashish ko'nikmalarini shakllanishiga e'tibor qaratmaydilar. Pirovardida bolalar o'zgalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishda qator to'siqlarga uchrashi tabiiydir. Bolalar maktabgacha ta'lim davrida ijtimoiy hayot qo'yayotgan talablarni bilishi, atrofdagilar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o'z "men"ini namoyon qilish kabi ko'nikma va malakalarni yetarlicha o'zlashtirmayaptilar. Zero, maktabgacha ta'limning samarasi 5-6 yosh bolalarning maktab ta'limiga har tomonlama tayyorligi, mustaqil hayotda o'z o'rnini topishi, yetuk shaxs sifatida shakllanganligi bilan baholanadi. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan shiorning o'rtaga tashlangani bejiz

emas, albatta. Bu maktabning poydevori esa maktabgacha ta'lim muassasalarida shakllantiriladi. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, bino shunchalik pishiq, ta'sirlarga bardoshli bo'ladi.

Maktabgacha yoshda bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyat hayotiga moslashishi, faol va ma'suliyatli ijtimoiy mavqega ega bo'lishi, o'zini anglay olishi, har qanday odam bilan doimo til topishishi va do'stlashishi uchun zarurdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayon sifatida juda muhimdir, chunki rivojlanish bilan birga uning hissiy sohasi ham o'zgaradi, bola o'z his-tuyg'ularini anglash barobarida yanada yaxshiroq boshqarishni boshlaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim amaliyoti 5-6 yoshdagi bolalarda kommunikativlik, ya'ni ularning o'zgalari va tengdoshlari bilan muloqot qilish maydoni keng bo'lgandagina, maktab ta'limi davrida o'quv materiallarini mukammal o'zlashtirish hamda kompleks rivojlanishning keng imkoniyatlari yuzaga chiqishi o'z isbotini topmoqda. Kommunikativlik bolaning shaxs sifatida shakllanishi jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar hayoti davomida ma'lum harakatlarni amalga oshirishi uning atrofidagi boshqa insonlar bilan o'zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi ijtimoiy va shaxsiy omillarning o'zaro aloqadorligida amalga oshadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar o'z faolliklarini namoyon etadilar va muloqotga kirishadilar. Bu jarayon ularda kommunikativ ko'nikmalarni shakllanishiga poydevor yaratadi. Bu davrda bolalarda ma'lumot va voqeliklar haqida mustaqil fikrlash hamda o'z fikrini bildirish jarayonlari yuz beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.

3. Abduhakimova M.K. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy –pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Avtoref. ped.fan.nom.-T.: 2004.-22 b.

4. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Avtoref. ped.fan.nom.T.:1998.-25 b.

5. Abobakirova O.N. Sovremeniye problemi i innovatsionniye podxodi podgotovki detey k shkole//Molodoy ucheniy. Moskva, 2015-№3.